

Qabul qilindi: 02.10.2025

Chop etildi: 29.11.2025

UDK:37.011:378.091(575.1)



Ilmiy rahbar: Yuldashxodjayev Xaydar Xashimxanovich, “Yangi asr” universiteti dotsenti

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (1991-1995)

Matyoqubova Hilola Alisher qizi, “Yangi asr” universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM (1991-1995)

Matyoqubova Hilola Alisher qizi, 3rd-year student of the Department of Philology and Language Teaching (Arabic) at “Yangi Asr” University

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (1991-1995)

Матякубова Хилола Алишер кызы, студент 3-курса направления “Филология и преподавание языков (арабский язык)” Университета “Янги аср”

<https://orcid.org/0009-0004-2278-7585>

e-mail:
matyoqubovahilola@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-3549-061X>

e-mail:
yuldashxodjayevxaydar@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1991–1995-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari tizimining shakllanishi va dastlabki rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mustaqillikning ilk yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, yangi normativ-huquqiy asoslarning yaratilishi, o'quv dasturlari va kadrlar tayyorlash tizimining yangilanishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, ushbu davrda milliy ta'lim modelining shakllanish jarayoni va uning ijtimoiy, madaniy hamda iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim islohotlari, mustaqillik davri, kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimi, milliy model, taraqqiyot.

Abstract: This article examines the formation and early development of the higher education system in the Republic of Uzbekistan during the period of 1991–1995. It analyzes the educational reforms implemented in the early years of independence, the establishment of a new legal framework, and the modernization of curricula and personnel training systems. Particular attention is paid to the creation of the national education model and its role in the country's social, cultural, and economic development.

Keywords: higher education, educational reforms, independence period, personnel training, education system, national model, development.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы формирования и первоначального развития системы высших учебных заведений в Республике Узбекистан в 1991–1995 годах. Анализируются реформы, проведённые в сфере образования в первые годы независимости, создание новой нормативно-правовой базы, обновление учебных программ и системы подготовки кадров. Особое внимание уделено становлению национальной модели образования и её роли в социальном, культурном и экономическом развитии страны.

Ключевые слова: высшее образование, образовательные реформы, период независимости, подготовка кадров, система образования, национальная модель, развитие.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi chuqur islohotlarga yuz tutdi. Bu davr mustaqil davlat sifatida o'z ta'lim siyosatini shakllantirish, milliy qadriyatlar va zamonaviy rivojlanish talablari uyg'unligida oliy ta'limni qayta tashkil etish bosqichi

sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Bu davrda oliy ta'lim tizimi kengaytirilib, yangi oliy o'quv yurtlari ochildi, bir qator filiallar va nodavlat oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Ayrim institutlarga universitet maqomi berildi. Buning natijasida oliy ta'lim muassasalari soni va talabalarning qamrovi

sezilarli darajada oshdi. 1991-yilda mamlakatda 41ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, 2000-yilga kelib bu ko'rsatkich 61 taga yetdi. Bu davrda oliy ta'lim muassasalarining soni 20taga ko'paydi.

1992-yil 28-fevralda "Respublikaning yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish to'g'risida"gi Prezidentning PF-356-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonning asosiy mazmuni shundaki, u sobiq SSSR davridagi ta'lim tizimidan voz kechib, O'zbekistonning mustaqil ta'lim siyosatini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Farmon ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish, oliy malakali pedagog va mutaxassislar tayyorlashni zamon talablari asosida yo'lga qo'yishga xizmat qilgan.

Farmon bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi.

- Andijon davlat universiteti – Andijon pedagogika instituti negizida;

- Buxoro davlat universiteti – Buxoro pedagogika instituti negizida;

- Farg'ona davlat universiteti – Farg'ona pedagogika instituti negizida;

- Jizzax davlat universiteti – Jizzax pedagogika instituti negizida;

- Namangan davlat universiteti – Namangan pedagogika instituti negizida;

- Navoiy davlat universiteti – Navoiy pedagogika instituti negizida;

- Qarshi davlat universiteti – Qarshi pedagogika instituti negizida;

- Urganch davlat universiteti – Xorazm pedagogika instituti negizida tashkil etildi.

Ushbu o'zgarishlar orqali institutlarning o'quv-ilmiy salohiyati kengaytirildi, ilmiy-tadqiqot faoliyati faollashtirildi, yangi fakultet va yo'nalishlar ochishga imkon yaratildi. Universitet maqomi ushbu muassasalarni mintaqaviy va milliy taraqqiyot markazlariga aylantirishda asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonning mustaqil ta'lim siyosatini shakllantirish, viloyatlarda oliy ta'limning sifatini oshirish va unga qulay sharoitlar yaratish, hududiy mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, yangi mustaqil davlat talablariga mos kadrlar zahirasi shakllantirish kabi bir qator maqsadlar Farmon qabul qilinishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar edi. Shu bilan birga, universitet maqomi o'quv jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu esa, keyinchalik O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh

qilishning ustuvor yo'nalishlariga asos bo'ldi va mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlagan muhim huquqiy hujjat sifatida xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil 12-maydagi "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetini tashkil qilish to'g'risida"gi 401-son Farmoniga asosan Respublika Rus tili va adabiyoti instituti hamda Toshkent chet tillari pedagogika institutining birlashtirilishi orqali O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tashkil qilindi. Universitetda bir qator xorijiy tillar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar bugungi kunda xalqaro miqyosda turli jabhalarda faoliyat yuritishmoqda. Universitet bitiruvchilaridan yetuk tarjimonlar, chet tili o'qituvchilari, siyosatchilar, xalqaro tashkilotlar va turli qo'shma korxonalarda faoliyat olib borayotgan yetakchi mutaxassislar yetishib chiqishgan. Bugungi kundagi universitet ta'lim jarayoni jahon hamjamiyati talablariga javob beradigan tilshunoslar va tarjimonlar tayyorlashga qaratilgan. Bugungi kunda ham universitetda malakali kadrlar tayyorlash davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Oliy o'quv yurtlarini ixtisoslashtirish maqsadida bitta yirik institutdan (Toshkent politexnika instituti) ikkita oliy ta'lim muassasasi (Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Toshkent arxitektura-qurilish instituti) tashkil etildi. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Toshkent davlat universiteti tarkibiga birlashib, mustaqil universitetga aylandi. Har bir oliy ta'lim muassasasi oldiga joriy etilgan yangi maqom asosida yo'riqnomalar shakli va mazmunini qayta tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar qo'yildi. Shu bilan birga, bir jamiyatning bir qator sohalarini isloh etish va mamlakat kelajagi uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida 1991-1995-yillar oralig'ida qator yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Davlat va jamiyat boshqaruviga oid strategik fikrlovchi, fidoyi va yuksak kasbiy madaniyatga ega yetakchi mutaxassislar zahirasi yaratish, ularning malakasini doimiy oshirib borish hamda ilg'or boshqaruv tajribalarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 19-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida davlat va ijtimoiy qurilish akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1097 sonli farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida davlat va jamiyat qurilishi

akademiyasi tashkil etildi. Akademiya faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari quyidagicha belgilandi:

- davlat, jamoat va xo'jalik tuzilmalari xodimlari hamda rahbarlari orasidan iste'dodli, aql-zakovatli tinglovchilarni puxta tanlab olish, ularning siyosiy, ma'naviy-axloqiy va professional saviyasini oshirish, ularni respublikada milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosiga qurilgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolar jamiyatini barpo etishning e'tiqodli tarafdorlari qilib tarbiyalash;

- oliy-ma'lumotli va oliy o'quv yurtini bitirganidan so'ng kamida ikki yil ishlagan mutaxassislar orasidan har tomonlama zukko, ma'naviy va professional jihatdan yetuk bo'lgan yoshlarni istiqbolli yosh menejer hamda boshqaruvchilar qilib tarbiyalash uchun qabul qilish;

- rahbar xodimlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazishning yangi tizimini ishlab chiqish va joriy qilishda ishtirok etish;

- professional rahbar tayyorlashning zamonaviy usullarini qo'llagan holda rahbarlarni tayyorlash hamda ijtimoiy va davlat qurilishining barcha bo'g'inlari uchun rahbarlar zahirasi umumdavlat bankini shakllantirish;

- tegishli mutaxassisliklar bo'yicha doktorantura va aspirantura orqali yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

- davlat va ijtimoiy qurilishni, iqtisodiy taraqqiyotni, psixologiya va sotsiologiyani takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek kadrlar siyosatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqish;

- xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalari faoliyati bo'yicha konsepsiyalar, dasturlar, loyihalar, tavsiyanomalar va boshqa hujjatlarni ilmiy ekspertiza qilish;

- rahbar xodimlarning malakasini oshirish va ularni tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik.

1991–1995-yillarda O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish va ta'lim tizimini xalqaro andozalar darajasiga olib chiqishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. 1992-yil 18-fevralda Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Fan va texnika davlat qo'mitasi tashkil etilib, uning vazifasi ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirishdan iborat bo'ldi. 1993-yildan boshlab davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, bakalavrlar tayyorlash tizimiga joriy etildi. 1995-yil 31-mayda Vazirlar Mahkamasi viloyatlardagi oliy o'quv yurtlarini rivojlantirishga doir qaror qabul qildi. Shu

yili axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha tajriba loyihalari yo'lga qo'yilib, Toshkent axborot texnologiyalari institutida birinchi elektron kutubxona va masofaviy ta'lim bo'limi tashkil etildi. 1995-yildan boshlab Germaniya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlik kuchaytirilib, qo'shma o'quv dasturlari va ilmiy almashinuvlar yo'lga qo'yildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1991-1995-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi yangi davlat mustaqilligining ijtimoiy-siyosiy talablari, milliy manfaatlar va global ta'lim standartlari asosida shakllandi. Bu davrda mustaqil oliy o'quv yurtlari tashkil etildi, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy universitetlar ochildi, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va sifatni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza yaratildi. Oliy ta'lim tizimi tuzilmasining takomillashuvi, magistratura bosqichining joriy etilishi, oliy ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida muhim qadamlar qo'yildi. Natijada, oliy ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan, raqobatbardosh va milliy qadriyatlarga asoslangan tamoyillar bilan boyidi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sh.Kholmuminov. An overview of Uzbekistan's education system: past and future. Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 5-son. – B. 327.
- 2.G.Xolboyeva O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar // Journal of new century innovations. Volume–32 Issue-2 Iyul 2023. – B 43.
- 3.Rakhimova G. Oliy ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish bosqichlari // *Ilm-fan va texnologiyalar* №4: 2006. – B. 96-100.
- 4.Алишер Навоий. Ҳайратул-аброҳ – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
- 5.Хожа Убайдуллоҳ Аҳроҳ. Табаррук рисолалар. –Тошкент: Адолат, 2007.–Б. 109.
- 6.Мамдалиев В. *Олий та'лимда халқаро ҳамкорлик: имконият ва муаммолар*. Toshkent: Fan. 2001. – B. 112.
- 7.Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, 5(44), 95-96.